

## SABZI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

*G‘.Satipov-q.x.f.d prof Urganch Davlat Universiteti*

*N. SH. Matyakubova - Urganch Davlat Universiteti*

*Biologiya yo‘nalishi magistranti*

*D. SH. Matyakubova - Toshkent Tibbiyat Akademiyasi*

*Urganch filiali Farmatsiya kafedrasi assistenti*

**Annotatsiya:** Sabzavot ekinlari orasida sabzi O‘zbekistonda ichki iste’mol va eksportdagi eng asosiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan biri hisoblanadi. SHu sababli uni asosiy va g‘alladan so‘ng takroriy ekin sifatida etishtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ushbu maqolada adabiyotlar taxlili asosida sabzi yetishtirish texnologiyasi haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** navlari, sabzining Mushak-195, Mirzoyi qizil-228, Mirzoyi sariq-304, Nurli- 70, Nantskaya-4, Shantane-2461, Ziynatli, Baraka navlari, to‘qsonbosti usuli, urug‘, o‘g‘itlar

**Аннотация:** среди овощных культур морковь является одной из основных сельскохозяйственных продуктов для внутреннего потребления и экспорта в Узбекистане. По этой причине большое внимание уделяется его выращиванию как основной и повторной после зерновой культуры. В данной статье представлена информация о технологии выращивания моркови на основе анализа литературы.

**Ключевые слова:** сорт, морковь Мушак-195, Мирзой красный-228, Мирзой желтый-304, Нурли-70, Нанцская-4, Шантане-2461, Зынатли, сорта Барака, метод девяносто два, семена, семенные гуты.

Sabzavotlar, jumladan, sabzi eng ko‘p iste’mol qilinadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hisoblanadi. Insonlarning yildan-yilga ko‘payib borishini inobatga oladigan bo‘lsak, ushbu sabzavotlarga bo‘lgan talab ham doimiy ravishda ortib boradi. SHuni hisobga olib O‘zbekistonda sabzavotchilikni rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Jumladan, mazkur soxani rivojlantirish bo‘yicha 2018 yil 29 martdagি O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5388 sonli Farmoni, 2019 yil 14 martdagи “Meva-sabzavotchilik soxasida qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘grisida”gi PK-4239 sonli qarorlari qabul qilindi.

Jahondagi deyarli barcha mamlakatlarda sabzining karotinli navlari etishtiriladi. Xitoy, Fransiya, Italiya, Rossiya va boshqa mamlakatlarda ko‘p ekiladi. Jahon

bo'yicha sabzi. ekin maydoni 861 ming ga, yalpi hosili 18,4 mln. t, hosildorligi 214,3 s/ga (1999).

Sabzi. 1-yili barg chiqarib, ildizmeva beradi, 2-yili gulpoya chiqarib urug‘ beradi. Sabzi. namsevar (ayniqsa, unish, gullash va ildiz-meva tugish davrida), yorug‘sevar, sovuqqa chidamli o‘simplik (maysalari — 2° ga chidaydi). Urug‘i 4—5° da unib chiqadi. 18—20° da yaxshi rivojlanadi. O‘suv davri 80—110 kun.

O‘tgan yillarga nazar soladigan bo‘lsak, Respublikamizda 2018 yilda umumiylar 127702 hektar maydonga meva-sabzavot maxsulotlari ekilgan bo‘lib, shundan 11983 hektarini sabzi va boshqa ekinlar tashkil etgan. 2019 yilda esa umumiylar 135641 hektar maydonga meva-sabzavot ekilgan bo‘lib, 19326 hektarini sabzi va boshqa ekinlar tashkil etgan. Bu ko‘rsatkichlar 2020 yilda umumiylar 136184 hektarni tashkil etgani xolda 19727 hektar maydonga sabzi va boshqa sabzavot ekinlari ekilgan [1]



1-rasm 2018-2020 yillarda sabzi ekilgan maydonning o‘zgarish dinamikasi

Soxa bo'yicha respublikamizda sabzavotchilik bilan shug'ullangan tadqiqotchilarining ma'lumotlariga ko'ra mamlakatimizning janubiy viloyatlarida bahorgi sabzi urug'i 15-25 fevral oraliq'ida, yozgisi 1-15 avgust oraliq'ida ekilishi maqbul hisoblanadi. SHimoliy viloyatlarda esa bahorgi sabzi urug'ini 1-15 mart oraliq'ida, yozda esa 10 iyundan 10 iyulgacha bo'lgan muddatda ekish tavsiya etiladi [2-3]. [4]

**Sabzi navlari:** O‘zbekistonda sabzining erta baxorda va takroriy ekin sifatida Mushak-195, Mirzoyi qizil- 228, Mirzoyi sariq-304, Nurli-70, Nantskaya -4, Shantane-2461, Ziynatli, Baraka navlari rayonlashtirilgan. To‘qsonbosti usulida SHantane, Nantskaya, Ziynatli navlari ekishga tavsiya etiladi.

**Sabzi yetishtirish uchun yer tanlash:** sabzi mineral o‘g‘itlarga boy o‘tloq, yumshoq qumloq yoki yengil qumoq tuproqli uchastkalarda yaxshi o‘sib, yuqori hosil beradi. [5-6]

Takroriy ekin sifatida ko‘pincha kuzgi donli ekinlardan keyin 10-25-iyun sanalarida 2 sm chuqurlikka  $52\times8$ ,  $62\times8$  sm sxemada ekish mumkin. Urug‘ sarfi 10 sotixga 500–600 g. Urug‘lar sepilgandan keyin xaskash bilan tuproqqa aralashtiriladi.

**O‘g‘itlash.** 10 sotix sabzi maydoniga sof holda 15 kg azot, 8 kg fosfor, 4,5 kg kaliy solish kerak. O‘tloqi, o‘tloqi botqoq yerdalarda yetishtirilganda sof holda 12 kg azot, 7 kg fosfor, 4 kg kaliy berish kerak. Erta baxorda ekanda o‘g‘itlarni berish

muddatlari: fosfor o‘g‘itini yillik miqdorining 75 foizi, kaliyning hammasi shudgorlashda, fosforning qolgan 25 foizi yerni boronalab, egat olishda berish tavsiya etiladi. Azotli o‘g‘itlarning hammasi vegetatsiya mobaynida ikkiga bo‘lib beriladi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida xulosa qiladigan bo‘lsak O’zbekistonda sabzi o’simligi keng miqyosida ekib yetishtiriladi ularning ekish muddatlari xaqida juda ko’plab ilmiy tajribalar amalga oshirilgan. Sabzi etishtirishda birinchi navbatda yerning holatiga e’tibor berilishi kerak. Sabzi mineral o‘g‘itlarga boy o‘tloq, yumshoq qumloq yoki engil qumoq tuproqli yerlarda yaxshi o‘sib, yuqori hosil berishi aniqlandi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Бабич С.В. Усовершенствование методики оценки всеобщности семьи овощных культур / Диссертация кандидата сельскохозяйственных наук. - Москва, 2009. - 120 с..

2.Ostonaqulov T.E., Zuev V.I., Qodirxo‘jaev O. Sabzavotchilik Toshkent: 2009. -B. 256-298.

3.Xakimov R., Xakimov A., Toshmuxammedov A. Sabzavot va poliz ekinlari urug‘chiligi. – Toshkent: 2003. – B.50-126.

4.Astanaqulov. K.D, A.B.Babajanov “Sabzavot ekinlari urug‘ini ekishning maqbul usuli va uni amalga chiradigan texnika vositasni ishlab chiqish”

5.Sabzavot, POLIZ EKINLARI VA KARTOSHKACHILIK ILMIY TADQIQOT INSTITUTI -Avgust piyozi, sarimsoqpiyoz va to‘qsonbosti usulida sabzavot ekinlari navlarini joylashtirish va etishtirish agrotexnikasi bo‘yicha tavsiyaviy qo‘llanma A.A.Xaitov

–Sabzavot va poliz ekinlarining tavsiya etiladigan navlari va etishtirish texnologiyasi bo‘yicha tavsiyanoma. R. Xakimov. O‘z SPE va KITI. - Toshkent, 2006. 2.

6 .[Agroblogger](#) [18 iyun 2021](#) .